


## Bajarilishi uch yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

<b>“Veterinariya va chorvachilik fanlari” yo‘nalishi</b>		
<b>№</b>	<b>Amaliy loyiha mavzusi</b>	<b>Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija</b>
	<p>Orolbo‘yi hududida baliqchilik sohasida baliq yetishtirishning ilmiy asoslangan usullari va intensiv texnologiyalarni ishlab chiqish</p> 	<p><b>Tadqiqotning shakli:</b> Amaliy.</p> <p><b>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- O‘zbekiston sharoitida yangi istiqbolli baliq turi xisoblangan tilyapiya baliqlarni yetishtirishning biologik va texnologik asoslari ishlab chiqiladi;</li> <li>- baliqlarni mahalliy iqlim sharoitida morfometrik ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi;</li> <li>- baliqlarni O‘zbekiston iqlim sharoitida dastlabki jinsiy voyaga yetilishi va nasl olishga tayyor baliqlar aniqlanadi;</li> <li>- ona baliq to‘dalari shakllantiriladi, suv haroratini nazorat qilgan holda sun‘iy urchitiladi va urug‘lik olinadi hamda sanoat usulida chavoq yetishtirishning muhim bosqichlari tadqiq qilinadi;</li> <li>- ona baliq, chavoq hamda tovar baliqlarni mahalliy bozorda mavjud ozuqalardan foydalangan holda oziqlantirishning ilmiy asoslari yaratiladi;</li> <li>- baliqlarni tuproqli havzalarda, yopiq aylanma suv ta‘minoti qurilmalarida hamda kichik hajmli intesiv o‘stirish texnologiyalarida yuqori tig‘izlikda yetishtirish texnologiyasi ishlab chiqiladi.</li> </ul> <p><b>Natijalarni sinovdan o‘tkazish:</b> Tadqiqot natijalari Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasida tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi.</p> <p><b>Ilmiy natijalarni chop etish:</b> Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</p> <p><b>Izoh:</b> Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.</p>